

HALIMA AHMEDOVANING “ICHIMDAGI ODAM” HIKOYASINING G‘OYAVIY-BADIY TAHLILI

Vahobova Madina Manof qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Halima Ahmedovaning “Ichimdagi odam” hikoyasining g‘oyaviy-badiy tahlili beriladi.

Kalit so‘zlar: hikoya, g‘oyaviy tahlil, ramziy obraz, timsol, badiy tasvir.

Halima Ahmedovaning hikoyalarida uning shaxsiyati, o‘y-fikrlari o‘z aksini topadi. Ular butunligicha ramziylikka asoslangan. Uning hayot haqidagi o‘ylari inson qalbining beqarorligi, sabab va oqibatlarning noaniqligi xususida kutilmagan xulosalarga keladi. Halima Ahmedova hikoyalarida inson qalbidagi o‘y-kechinmalar, taassurotlar ramzlar pardasi bilan bezalgan. Bu hikoyalar nimasi bilan insonni ta’sirlantiradi? Sababi shundaki, muallif qo‘llagan ramzlar, o‘xshatishlar insonning qalbidagi mudroq hislarni uyg‘ota oladi.

“Ichimdagi odam” hikoyasi shunday satrlar bilan boshlanadi: “*Havo bor og‘irligini daraxtlar ustiga tashlagan...*” Hikoyada so‘zlar jozabador qo‘schiqqa raqs tushadi. Bir o‘qishda asar hikoya emas, mansuralarga ham o‘xshab ketadi. “*Asalarining ishqli oyoqchalari pechak gulni qitiqlaydi, suvlar esa ariqqa boshini urib-urib qiqir-qiqir kulishadi*”. Bu tasvirlarni sinchiklab kuzatgan insongina ko‘rishi, his qilishi va tasvirlab berishi mumkin. Hikoya qahramoni ichidagi insonni birinchi marta “chiroyli toshi” chuqur balchiqqa tushib ketganda va uni olish uchun yo‘l axtarganda uchratadi. “*Men harchand urinmay o‘radan chiqolmasdim. Shunda yonimdan kimningdir ovozi keldi*”.

-*Yaxshilab tirmashsang chiqasan, qo‘rqma, yoningda men borman*”

Shu kundan boshlab u ichidagi haqiqat ko‘zgusini ko‘ra boshlaydi. Bu muallif tili bilan aytganda, ichimizdagi odam bo‘ladi. Bu odam ko‘ngil eshiklarini ocha biladi, ko‘ngilda ne hislar kechayotganini biladi go‘yo. Yana shunday satrlar keltiriladi: “*Ko ‘zguga boqib o ‘z husnimga to ‘ymay yurgan paytlarim edi, u negadir qattiq xo ‘rsinadigan bo ‘ldi. Men e’tibor bermas edim.*” Insonda shunday kunlar bo‘ladiki, ko‘zguga aldanib chin haqiqatdan chalg‘iydi: “*Ko ‘zguning yolg‘oni tole yulduzini kuydiradi.*” Bunga qahramon e’tibor bermaydi. Bilamizki, ko‘p xatoliklarga shu beparvolik orqali duchor bo‘lamiz. Hozir hammamiz beparvo odamga aylanganmiz. “*Meni dunyoning eng so ‘lim orzu guli bilan yasantirishdi. Kelinchak tillaqoshini taqishdi. Tillaqoshimga xunuk ko ‘rshapalak qo ‘nadi va beo ‘xshov qanotini qoqib uchib ketadi. Tillaqoshimni feruza toshi dumalab begona oyoqlar ostida qoladi*”. Muallif so‘z sehridan mohirona foydalanganki, u baxtsizligini birgina ko‘rshapalak qanoti bilan tasvirlab beradi. Bunda ko‘rshapalak zulmat qo‘riqchisi hisoblanib faqat tunda uchib yuradi. Endigina baxt qasriga kirganda, baxtdan sarmast bo‘lib yurgan paytida qayerdandir baxtsizlik qora qanotini qoqib keladi. Baxtli insonni birdaniga o‘zining og‘ushiga oladi. Uning baxtining ramzi bo‘lgan feruza toshi esa beparvo odamlar oyog‘i ostida qoladi.

“*Bugun men o ‘sha odamning izmidaman. U meni sudrab-sudrab bir sahroga olib keldi. Quyoshning gulxanida kuyib kul bo ‘lgan bu sahroda onda-sonda joyda kultepalar ko ‘rinadi*”. Ichidagi odamdan nima sababdan kelganini so‘raydi va shunday javob oladi: “*Axir, sen haqiqiy ishqni ko ‘rmoqchi eding*”. Bilamizki, asl ishq Ollohga atalgan bo‘ladi. Bu ishqqa yetish uchun qancha yo‘l yuradi, qancha dard, alam chekadi. Bu yo‘lda oyoqlarga qanchadan qancha tikonlar kiradi, lekin har bir tikondan ishq yo‘liga yaqinlashib bir umid guli ochilib boraveradi.

Nima bo‘lganda ham inson ichidagi odamga, ya’ni ko‘ngliga quloi solishi kerak. Chunki qalb aldamaydi, Alloh ham ko‘ngilga nazar soladi, deydilar. Shuning uchun birinchi navbatda ko‘ngil pokligini asrash ahamiyatli. Bu hikoya qalbdagi mudroq hislarni uyg‘otishga, haqiqat ko‘zgusiga qarashga undaydi. Chunki Halima Ahmedova tuyg‘u-kechinmalarni qo‘l bilan ushlab ko‘radiganday tiniq tasvirlaydi. Bunda ramziy obrazlar ham g‘oyaviy-badiiy vazifa bajaradi. Halima Ahmedova ijodi,

aynan “Ichimdagি odam” hikoyasi **adabiyotning, so‘zning qanchalar katta kuch ekanini, uning insonga eng oliy nemat – tuyg‘u berishini, qalbni tiriltirgich bo‘lajagini namoyon etib turadi.** Albattaki, hikoyada ko‘zguga qarab o‘zni tartibga keltirsalar, degan umid bor deb hisobladik. Bir so‘z bilan aytganda, hikoya – ko‘ngillarga ana shunday ko‘zgu tutadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmedova H. Yosuman gulining soyasi. hikoyalar. Toshkent, 2013.